



## O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARI (PUNKTUATSIYA)

Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Guliston Davlat Universiteti

Lingvistika: O'zbek tili yo'nalihi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7344549>

## ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> November 2022Accepted: 18<sup>th</sup> November 2022Online: 21<sup>st</sup> November 2022

## KEY WORDS

Punktuatsiya, punktuatsion savodxonlik, sintaktik konstruksiya, punktuatsion tizim, nuqta, vergul, so'roq, undov, ellips, iqtibos, chiziqcha, ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs.

Maqolani tinish belgilari nomini tahlil qilish bilan boshlaydigan bo'lsam, TINISH so'zining lug'aviy ma'nosi- dam olish, nafasni rostlash, to'htamoq degan ma'nolarni anglatadi. O'z nomidan ham ko'rinish turibdiki, tinish belgilari bu-so'zlarni talaffuz qilish jarayonida to'htab o'tish, urg'u yoki intonatsiya orqali ifodalashimizga ishora qiladi. Tinish belgilari tilshunoslikning deyarli barcha bo'limlari bilan deyarli bir hil aloqaga kirishgani bilan, asosan Sintaksis bo'limi uchun ahamiyati va o'rni nihoyatta katta. Til nuqtai nazaridan olib qaralganda esa, tinish belgilari bu- yozma nutq uchun xos bo'lgan hodisa hisoblanadi. Demak, tinish belgilari taraqqiyotini yozuvning paydo bo'lishi, ommaviy axborot vositalari bo'lgan gazeta va jurnallarning vujudga kelishi bilan izohlaydigan bo'lsak, maqsadga muvohiq bo'ladi. Xalqaro (Internatsional) fanda tinish belgilarini - Punktuatsiya deb ataladi.

## ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek tilida tinish belgilaring paydo bo'lishi, punktuatsiya tamoyillari, tinish belgilarini qo'llashda ma'lum bir ilmiy asoslarga amal qilish, tadqiqotchiga tinish belgilarining qoidalarini turli misollar orqali o'rgatish, punktuatsion belgilarni yozma nutqda tog'ri qo'llay olish malakasiga ega bo'lish, sintaktik konstruksiyalarini erkin tahlil qila olish haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lgan materiallar o'rganilgan hamda kerakli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kishilik jamiyatida yozuv madaniyatining shakllanishi bilanoq tinish belgilarining ahamiyati ham benihoya ortdi. Punktuatsiya tildagi sintaktik qurilish bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va albatta yozma nutqni aniq va ifodali bayon qilishda so'zning uslubiy to'g'rilingini, tushunarligini ta'minlashda zaruriy vosita bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari tinish belgilari psixologik va intonatsion holatlarni namoyon qilishda ham juda muhim ahamiyatga ega. Harflar, diakritik belgilar va raqamlar bo'lmish yozuvning boshqa vositalari va tilning asosiy birliklari bo'lgan so'zlar hamda morfemalar orqali ko'rsatish mumkin bo'lмаган har hil fikriy munosabatlar ham aynan tinish belgilarini orqali ifodalanadi. Zero, tinish belgilari ma'lum bir yozuv tizimining ko'makchi, ayni paytda, zaruriy qismi bo'lmish shartli belgilar jamlanmasidir. Punktuatsiyani tilshunoslikning orfografiya (adabiy tilning to'g'ri yozish qonun-qoidalarini



o'rganadigan bo'lim) bilan uzviy bog'liq deyish mumkin. Orfografiya so'zlarning to'g'ri yozilishini o'rgansa, punktuatsiya gaplarning to'g'ri bayon qilinishi, undagi har bir jumlaning aniq ifodalanishi uchun xizmat qilib, sintaksis (birikma, tartib, tuzilma) bilan uzviy bog'lanadi. Shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, punktuatsiyaning eng muhim va asosiy vazifasi yozma matnni bo'laklarga ajratishdan iborat.

### **METOD VA MEDOLOGIYASI**

Punktuatsiyaning kelib chiqish tarixi, punktuatsion tizimning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, tinish belgilari sonining turli davrlarda va turli tillarda turlicha namoyon bo'lishi barcha tilshunosga ma'lum. Misol uchun tinish belgilarining hozirgi ma'no va ko'rinishida G'arbiy Yevropa tillari yozuvlarida XV-XVI asrlarda, rus yozuvida XVIII asr o'rtalarida, o'zbek yozuvida esa XIX asr ohiri, XX asr boshlarida gazeta (Gazette fransuz tilidan olingan bo'lib, u o'z navbatida ma'lum bir tanganing nomi bo'lgan italyan gazetasining XVI asrdagi almashtirilishi) va jurnal (fransuzcha: journal-kundalik daftar) larning ommaviy nashr etilishi natijasida paydo bo'lib, iste'molimizga kirib kela boshlagan. Ingliz tili punktuatsion tizimida apostrof va defis ham tinish belgisi hisoblanib, hammasi 12 ta bo'lsa, hozirgi o'zbek Punktuatsiyasi 10 ta tinish belgisidan iborat bo'lib, ular:

Nuqta ( . );  
 Ikki nuqta ( : );  
 Ko'p nuqta ( ... );  
 Vergul ( , );  
 Nuqtali vergul ( ; );  
 Qo'shtirnoq- tirnoq ( " );  
 So'roq belgisi ( ? );  
 Undov belgisi ( ! );  
 Qavs ( () );

Tire ( - )

Yuqoridaqin tinish belgilarining o'ziga yarasha ishlatalish o'rni bor bo'lib, quyidagi 6 holatda eng ko'p ishlataladi:

- a) undalmalar
- b) kiritmalar
- c) qo'shma gaplar
- d) ko'chirma gaplar
- e) uyushiq bo'laklar
- f) ajratilgan bo'laklar

Mazkur holatlarda ko'proq **tire, vergul, ikki nuqta** hamda **nuqtali vergul** kabi punktuatsion belgilardan ko'proq foydalilanadi. Bularning qay tarzda ishlatalishiga oid amaliy misollar keltirib o'taman:

### **Undalmada**

Bu qasidam senga, xalqim,  
 Oq sut-u tuz hurmati,  
 Erkin o'g'lingman, qabul et,  
 O'zbegim, jon o'zbegim.  
 (E.Vohidov)

### **Kiritmada**

Gurgo (keyin bilishimcha, amaldorlarni shunday deb atasharkan) meni yaxshi tushundi.

(Gulliverning sayohatlari.J.Swift)

### **Qo'shma gaplarda**

Garchi, u kitobiy so'zlar va majoziy she'rlarga yaxshi tushunmasa ham, g'azallarning ohangi, musiqiysidan zavqlanardi.

(Zulmat ichra nur. M.Osim)

### **Ko'chirma gaplarda**

-Yo'g'-e, buvi,-dedi o'g'ri, - to'nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz.

(Mening o'g'rigina bolam.G'.G'ulom)

### **Uyushiq bo'laklarda**

Ho'kiz, eshak, xo'roz uchovi boshidan o'tganlarini bir-biriga gapirishib, hasratlashib ketaverishibdi.



(Susambil ertagidan)

### Ajratilgan bo'laklarda

Oradan biroz vaqt o'tgach, qarshimda ulug' martabali zot – imperator hazratlarining elchisi paydo bo'ldi.

(Gulliverning sayohatlari.J.Swift)

### TADQIQOT NATIJASI

Bugungi kunda o'zbek tilida qo'llanilib kelinayotgan tinish belgilarini misollar orqali izohlab chiqaman:

**Nuqta-** eng qadimgi va eng ko'p qo'llanadigan tinish belgi bo'lib, XI asrda arab matnlarida yozuv sifatida paydo bo'lgan. Mazkur belgi o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan ishlatila boshladi. Hozirgi o'zbek imlosida esa quyidagi o'rirlarda qo'llanadi:

1. Darak gaplar oxirida (Ovchi qishlog'iga tor bir daradan o'tib boriladi. "Yulduzli tunlar" P.Qodirov).

2. Orzu-istik, iltimos, buyruq gaplar oxirida (O'zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma. "Sobiq".S.Ahmad)

3. Bosh harflar yoki bo'g'inlar bilan ko'rsatilgan shartli qisqartmalardan so'ng (S. Rahimov; M. T. Oybek;; va boshqalar); abbreviaturalarda nuqta qo'yilmaydi;

4. Raqamlar yoki harflar bilan ko'rsatilgan numerativlardan so'ng (1. D. 2. B. kabi. Bunda numerativdan so'ng keladigan gaplar mustaqillikka ega bo'lishi shart);

5. Ba'zan sanalar raqam bilan yozilganda, yil, oy, kunlarni o'zaro ajratish uchun ular orasiga qo'yiladi (01.07.1966); (2016.01.11)

**Ikki nuqta-** tinish belgisi ustma-ust qo'yiladigan ikkita nuqtadan tashkil topgan bo'lib, u asosan quyidagicha qo'llaniladi:

- 1.Uyushiq bo'laklar oldidan: (Hamma narsa:uyilar, devorlar, daraxtlar qorong;ulikka jimgina cho'kdi "Oybek")

2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: (Yakun qildim: ko'z yoshlariga ikki bois bor ekan asli)

3. Ko'chirma gapdan oldin: (U uzoq o'yladi: bunday vaziyatda nima deyishim mumkin?)

**Ko'p nuqta** - ketma-ket qo'yiladigan uch (so'roq yoki undov belgisidan so'ng ikki nuqtadan iborat tinish belgisi bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmidan ya'ni 1876-yildan boshlab «Turkiston viloyatining gazeti» da muntazam qo'llanilib kelingan. Ko'p nuqta, asosan, quyidagi o'rirlarda ishlatiladi:

- 1) gapning tugallanmaganligini bildirganda: -Men nima qilibman... Siz... — dedi Xolmurod... (P. Tursun);

- 2) nutq jarayonida so'zlovchining to'xtalishini bildirganda: Sen... sen qo'riqqa borasan;

- 3) iqtiboslarning bir qismi tushirib qoldirilganda;

- 4) dialogda savol javobsiz qolganda.

**Vergul** tinish belgi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan ishlatilishni boshlagan. O'zbek tilishunoslida esa, XX asr boshlaridan uchraydi. Bugungi kunda verguldan quyidagi o'rirlarda foydalilanadi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida: A.Qahhorning ijodiy tajribasi kitobxonlar uchun ham, adabiyotshunoslar uchun ham, yosh yozuvchilar uchun ham bebafo bir manbadir.(P.Qodirov)

2. Undalmalarda: (-Onajon, siz menga yangi birr uh ato qildingiz!..."Yulduzli tunlar" P.Qodirov)

3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng: (Demak, ertaga yangilar kelib qo'shilsa, unda ularni bizlardan afzalroq ko'rarkansan-da?! "Ezop masalidan")



4. Tasdiq, ta'kid, inkor so'zlarda: (Mayli, beshta edik, ko'p bo'lrik, -debdilar "Susambil ertagidan")

5. Ajratilgan bo'laklarda: (Soyda, qo'sh yong'oqning tagida, oppoq qorga ko'milib uzoq turdi "O.Yoqubov")

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: (Imperatorning ko'zlarida yosh ko'rdir, bundan ortiq mukofot bo'lmaydi, - dedi bulbul "Bulbul" H.K.Andersen)

7. Bog'langan qo'shma gaplarda: (Uning gavdasi juda katta, tovushi bo'lsa juda baland edi "S.Ahmad")

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa. (Ey, menga ham bir qarab qo'ying.)

9. Ko'chirma gap darak, buyruqgap bo'lsa: (Hilm inson vujudining favoqihlig' bog'idir, odamiyliq' olamining javohirlig' tog'i. "Hilm zikri" A.Navoiy)

**Nuqtali vergul** - ustma-ust joylashgan nuqta va verguldan tiborat bo'lib, u ikki unsurli tinish belgilaridan biri hisoblanadi (:). XIX asr oxirlaridan o'zbekcha matnlarda qo'llana boshlagan mazkur tinish belgi hozirgi o'zbek imlosida quyidagi o'rnlarda qo'llanishi isbotlangan:

1. bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lмаган gaplar orasida (Qalandarovning taklifi, shubhasiz, o'tmaydi; unda raisning obro'yi tushadi);

2. gapdagi uyushiq bo'laklar murakkab bo'lib, ular ma'lum guruhlarga ajratilganda, shu guruhlar orasida (Bugungi yig'ilishda talaba va o'qituvchilar; muhandis va farroshlar qatnashishdi);

3. yarim qavs bilan ajratilgan raqam yoki harflardan keyingi gaplar oxirida (Kun tartibidagi masalalar quyidagilardan iborat:

a) sinf faollarini saylash;

b) texnika xavfsizligi haqida tushuncha berish;

v) maktab ichki tartib-qoidalari va boshqalar)

4. murakkab (aralash) qo'shma gaplar orasida (Yer ko'karmas, el yashnames, bo'lmasa ko'k tomchisi; Qaydan olsin she'rni shoir, bo'lmasa ilhomchisi ([A. To'qay](#)).

**Qo'shtirnoq** tinish belgisini amaliyatga rus tilshunos olimi professor A.A. Barsov kiritgan bo'lib, o'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab foydalanildi.

**FITRAT** mazkur tinish belgisi haqida "Tirnoqlar- bir yozg'uchi tomonidan muhim sanalsa, yozg'uchi o'z so'zlarini boshqa bir kishining so'zlarini hikoya qilsa, anglashilishi yengil bo'lmag'an otlar, atamalar bo'lsa, shular tirnoq ichra olinadir", -deganlar.

**Qo'shtirnoq quyidagi holatlarda ishlataladi:**

1. Har biri alohida hatboshi ko'rinishida yangi qatordan emas, balki ketma-ket bir qatorda berilgan dialog shaklidagi ko'chirma gaplar qo'shtirnoqqa olinadi

2. Turli manbalardan olingan iqtiboslar ham qo'shtirnoq ichida beriladi:

*Navoiy umrining oxirlarida yaratgan "Mah bub ul-qulub" asarida yozadi: "Yaxshi-yamonning fe'lini bilibmen va yamonu ya xshi xislatlarin tajriba qilibmen".*

(N.Komilov)

3. Ichki nutq shaklidagi birliklar (o'y-xayol, mulohaza, tasavvur kabi) qo'shtirnoqqa olinadi: Shavkat sekin oyna si darz ketgan suratga termulib qarar ekan xayolidan ushbu o'ylar o'tdi: "Qiynali b ketdim, Surayyo... Sen bo'lganingda, bu ko'rguliklar yo'q edi... O'zing hammasini eplarding..." (Sh.Boshbekov).



4.Gapda odatdagi ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llangan, shuningdek, eski, yangi yoki chet so'zlar qo'shtirnoqq a olib beriladi:

Bunday "maqtovlar" Shayxni battar jazavag a soladi. (O'.Hoshimov)

5.Turli asarlarning, qolaversa, kitob, gaze ta va jurnallarning nomlari, sarlavhalar alohida olinganda emas, balki matnda qo'llanganda,

qo'shtirnoqqa olinadi: A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi menga judayam yoqadi

6.Muassasa, tashkilot, korxona va shu ka bilarning shartli nomlari

qo'shtirnoqqa olinadi: "Oltin meros" xalqa ro xayriya jamg'armasi.

7.O'zbekiston Respublikasi orden va medallarining nomi qo'shtirnoqqa olinadi: "Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun" ko'krak nishoni".

8.Turli mahsulotlarning shartli nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: "Pikolo" konfeti

**So'roq belgisi** ham o'zbek tiliga rus tilidan kirib kelgan, XIX asr oxirlaridan boshlab "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida ayrim matnlarda qo'llana boshlagan. Mazkur belgi gap oxirida qo'llanadigan belgi hisoblanadi (?). U asosan mazmunidan so'roq anglashilgan gaplar oxiriga qo'yiladi va shu gapning ifoda maqsadiga ko'ra so'roq gap ekanligini ko'rsatadi. So'roq belgisi o'zbek adabiy tilida quyidagi hollarda qo'llanadi:

1. Sof so'roq gaplar (sodda yoki qo'shma) oxiriga qo'yiladi: (Shuncha mol-holni tashlab ketib, qayga boramiz? "Zulmat ichra nur" M.Osim)

2. Taqrizlarda, iqtiboslarda biron so'z yoki jumla noaniq bo'lsa, xato qo'llansa, gumon va anglashilmovchilikni bildirsa, o'sha so'z yoki jumladan so'ng qavsga o'ragan holda qo'yiladi.

3. So'roq gap tipidagi sarlavhalardan keyin qo'llanadi (Kim onani sevmaydi?!)

**Undov belgisi** - ikki elementli tinish belgisi (!) bo'lib, gap ohrida ishlatiladi. Undov belgisi, asosan, undov va buyruq gaplar oxiriga qo'yiladi. U o'zbek yozuvida XX asrning boshlaridan, "Turkiston viloyatining gazeti"da 1901-yildan, keyinchalil esa boshqa bosma asarlarda doimiy qo'llana boshlagan.

Undov belgisi, asosan quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1) undov gaplar oxirida (Bu yurtning eng yaxshi g'aroyiboti mana shu! "Bulbul" H.K.Andersen);

2) buyruq, tilak, orzu ma'nolarini ifodalagan gaplar oxirida (-Zindonga solinsin!- deb buyurdi "Uch og'a-ini botirlar ertagidan");

3) gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undovlardan hamda xa va yo'q so'zlaridan keyin (Jamila! Bas, tur o'rningdan! "Hamza");

**Qavs** (arab. — yoy, egilgan narsa)-ochiluvchi va yopiluvchi qismlardan iborat bo'lib, o'zbek tilida keng qo'llanadigan tinish belgilaridan biri. Ikki elementli (qo'shaloq) tinish belgisi asosan, gap o'rtasida hamda oxirida ishlatiladigan chegaralovchi belgidir. Hozirda u asosan 2 xil shaklda ishlatiladi:

a) odatdagi Qavs () asosiy me'yor hisoblanib, barcha yozuv shakllarida uchraydi; b) o'rta Qavs yoki katta Qavs — [] va {} matematika, geometriya, kimyo va boshqalar fanlarda, shuningdek, Qavs ichida Qavs keladigan holatda uchraydi. Xususan, mat.da bu belgi amallarning bajarilishi tartibini belgilash uchun ishlatiladi.

Hozirgi o'zbek tilida quyidagilar Qavsga olinadi:



- a) kiritma konstruksiyalar (kiritma so'z, kiritma birikma, kiritma gaplar);
- b) remarkalar; v) sitata yoki misollarning manbalari;
- g) tushuntirish, izoh, uqtirish ma'nosidagi so'z, birikma va gaplar,
- d) sitatadagi biror so'z yoki jumлага muallifning turli munosabatini bildiruvchi so'roq, undov belgilari, shuningdek, muallif tomonidan sitataga kiritilgan gaplar. Bilamizki, qavsga olingan qism asosiy gap bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo'ladi.

**Tire-** hozirgio'zbek tilida keng qo'llanadigan, gorizontal chiziqcha (—) shaklidagi tinish belgisi hisoblanadi. Tire belgisi rus yozuvida XVIII asrdan, o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan qo'llanila boshlangan. Ushbu tinish belgi aralash holda, ya'ni gapning boshida va o'rtasida, shuningdek, yakka va takror holda ham qo'llanuvchi tinish belgilaridandir.

Bugungi kunda Tire sodda va qo'shma gaplar tarkibida qo'llanib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) gaplarni, gap bo'laklarini ajratadi;
- b) gaplar, gap bo'laklari va ayrim sintaktik tuzilmalarni chegaralaydi;
- v) turli xil maqsadlar — emotsiyal — ekspressiv holatlarni ifodalaydi;
- g) tushirib qoldirilgan ayrim bo'laklar o'rnini qoplaydi (Vaqtin ketdi-naqting ketdi).

Grammatik hamda intonatsion jihatdan mustaqil gap bo'laklari har ikki tomonidan Tire bilan ajratiladi. Bunda ajratilgan bo'lakning har ikki tomonidan qisqa pauza bo'ladi (Tog'alarim — Egamberdi va Rahimberdi — meni bir-bir quchoqlab, ishga beriladilar. — Oybek). Tire ikki yoki undan ortiq atoqli otning birikuvidan tuzilib, biron tashkilot, muassasa, ta'limot,

narsa yoki hodisalar nomini anglatuvchi so'zlar orasida (TransMonEE-YuNISEF tashkiloti), shuningdek, makon, zamon va miqdor chegarasini biddiruvchi ikki yoki undan ortiq so'zlar raqamlar orasida ham (50—60 yillar, XIX—XX asrlar) qo'llanadi.

### MUHOKAMA

Punktuatsiya sohasidagi amaliy va nazariy ishlarda punktuatsion belgilar, tinish belgilari, ba'zan ajratish belgilari kabi terminlar ham qo'llanib kelinadi. Bu punktuatsion belgilar tushunchasi ana shu bahsga aloqador bo'lgan va unda belgi deb ko'rildigan barcha shakllarni o'z ichiga oladi.

Demak, bu termindan ajratish belgilarini ham, tinish belgilarini ham anglashimiz mumkin. Shuning uchun ham har ikki terminni ajratish belgilari, tinish belgilari anglatgan barcha shakllar uchun umumiyl nom sifatida ham, shuningdek, u terminlardan har birining o'rnida ham qo'llay olamiz. **Ajratish belgilari** termini maxsus vazifaga ega bo'lmaydi, ayni va to'g'ri kelgan turli o'rnlarda matnlarni qismlarga ajratish uchun qo'llanadigan shakllarga nisbatan ishlatiladi. Bunday belgilar dastlab gazeta va jurnallar maydonga kelgunga qadar qo'llangan o'tmish yozuvlarimizda asosiy punktuatsion belgililik vazifasini bajargan. Keyinchalik esa, qo'lyozmalar bilan birga, nashriy matnlarda ham qisman qo'llanilgan.

**Tinish belgilari** termini bilan yozuvimizda o'ziga xos asosiy vosita bo'lib ishlatilgan va hozirgacha ishlatilayotgan yevropacha **punktuatsion belgilarnigina** ataymiz. O'z navbatida, muayyan tildagi punktuatsion an'analarining paydo bo'la boshlashi va barqarorlashuvida mashxur yozuvchilarning ijodi hamda tinish belgilaridan foydalanish qoidalarini



aniqlovchi va tartibga soluvchi filolog va tilshunos olimlar faoliyati juda muhim ahamiyatga ega. Bugungi o'zbek tilshunosligida tinish belgilarining shakllanishi, takomillashuvi hamda o'rganilishida A. Fitrat, O. Usmon, S. Ibrohimov, H. G'oziyev, G'. Abdurahmonov, K. Nazarov va boshqa tilshunos olimlarning o'rni va ahamiyati katta desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek tilida tinish belgilar XIX asr ohiri, XX asr boshlarida qo'llanila boshladi.

### MUHOKAMA

**XULOSA** o'rnida aytish mumkinki, hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakillanishi dastavval, biroz chalkashliklarni yuzaga keltirgan, ya'ni, punktuatsiya masalalari bilan shug'illangan H.G'oziyev ("O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti", 1969, 1979), G'.Abdurahmonov ("Punktuatsiya o'qitish metodikasi", 1968), K.Nazarov ("Tinish belgilari va yozma nutq", 1974) larning kitoblarining yaralganiga ancha yillar bo'ldi va ulardag'i punktuatsion belgilarning ishlatalishi haqidagi munosabat va fikrlar bir munda o'zgardi. Bundan tashqari "Muallif punktuatsiyasi", aniqroq aytganda, muallif

tomonidan tinish belgilari qoidalari amal qilmagan tarzda individual qo'llash holatlari ham uchraydi. Mana shunday ayrim chalkashliklarni hisobga olgan hold ava bularga aniqlik kiritish maqsadida O'z.Res FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining bir nechta yetakchi olimlaridan prof. N.Mahmudov, dotsent A.Madvaliyev hamda dotsent N.Mahkamovlar tomonidan "O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari" ishlab chiqildi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida alohida bo'lim sifatida qaraladigan Punktuatsiya (Tinish belgilari) mana shular asosida shakillanib, keng o'rganilib va qo'llanilib kelinmoqda. Mazkur maqolaning yangiligi shundaki, hozirgi o'zbek tilshunosligida tinish belgilari haqidagi umumiy ma'lumotlardan foydalanish uchun bir nechta tilshunoslikka oid kitoblardan izlashimiz yoki internet ma'lumotlarini ko'rib chiqishimiz kerak bo'lar edi. Bu albatta ko'p vaqt talab qiladi. Ushbu maqolada men tinish belgilarini turli misollar va solishtirishlar orqali jamladim. Bu albatta foydalanuvchi uchun biroz yengillik bo'ladi degan umiddaman.

### References:

1. "O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari" N.Mahmudov, A.P.Madvaliyev, N.Mahkamov. Toshkent-“O'zbekiston”-2015.
2. "O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti" H.G'oziyev. O'zbekiston "Fan" nashriyoti-1979.
3. "O'zbek tili punktuatsiyasi" K. Nazarov. Toshkent-1976.
4. "Adabiyot" umumiy o'rta maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism.